



# XORAZM VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI QARORI

(Urganch shahri, Pahlavon Maxmud ko'chasi, 59/2-uy)

34 -sonli

2024 yil " 2 " noyabr

## Xorazm viloyati hududiy saylov komissiyasining muhri tayyorlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 27-maydagi 1330-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hududiy saylov komissiyasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, Xorazm viloyati hududiy saylov komissiyasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 27-maydagi 1330-sonli qaroriga asosan Xorazm viloyati hududiy saylov komissiyasining xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatining guvohnomasini tasdiqlash uchun muhri ilovaga muvofiq shaklda tayyorlansin.


2. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish hamda muhrlarni saqlanishini ta'minlash hududiy saylov komissiyasi kotibi Sh.Matyusupov zimmasiga yuklatilsin.

Rais



Z.Karimov

**Xorazm viloyati hududiy saylov komissiyasining gerbli rezina muhri**



Hududiy saylov komissiyasining gerbli rezina muhri diametri 25 mm aylana shaklda bo‘lib, markazdan 8,5 mm uzoqlikda asosiy aylana va undan 1 mm masofada yana bir aylana o‘tkazilgan. Ikkinchi aylana tagida aylana bo‘yicha “XORAZM VILOYATI HUDUDIIY SAYLOV KOMISSIYASI”\* yozuvi bor. Ushbu matnning tagidan yana bir ichki aylana o‘tkazilgan bo‘lib, aylananing ichida O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan.